



ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

SJIF 2021: 5.723
Cite Factor 2020-21: 0.89

2021/11

VOLUME 2
ISSUE 11



We increase scientific
potential together!



ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences

**THE JOURNAL OF
ACADEMIC RESEARCH IN
EDUCATIONAL SCIENCES**

ISSN 2181-1385

VOLUME 2, ISSUE 11

NOVEMBER 2021



www.ares.uz

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O'YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Dilnura Sohib qizi Toshtemirova

O'zbekiston. Jizzax davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalar nutqini rivojlantirishning o'yin faoliyatidan foydalanishning asosiy xususiyatlari va uning afzalliklari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: kattalarning mehnat faoliyati, barkamol insonni tarbiyalash, nutqiy faollikni shakllantirish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish.

ABSTRACT

This article discusses the main features of children's speech development using play activities and its benefits.

Keywords: adult labor, upbringing of a harmoniously developed person, formation of speech activity, comprehensive intellectual, moral, aesthetic and physical development of children.

KIRISH

Ta'lif jarayonida bo'lajak o'quvchi-tarbiyachi bilish faoliyatini yo'lga qo'yish muhimdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asirga intilmoqda" asarida dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan, atrofida yuz berayotgan hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan shaxsiy manfaatlarini xalq manfaati bilan uyg'unlikda ko'radigon barkamol insonni tarbiyalash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinniki, maktabgacha ta'lif muassasalarida amalga oshirilish lozim bo'lgan masalalar ham talaygina. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalari birlamchi holatdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-soni Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish

[Google Scholar](#)

[Scientific Library of Uzbekistan](#)

[Academic Research, Uzbekistan](#)

1068

[www.ares.uz](#)

jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlariga oid me’yoriy-huquqiy hujatlar asosida ta’lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda desak mubolag’ a bo’lmaydi. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

- ❖ Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlashning asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari;
- ❖ 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli guruhlarni tashkil qilishning asosiy parametrlarini tasdiqlash vazifalarini belgilab oldi.

V.G.Plexanov san’atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganda bolalar o`yinlariga e’tibor qiladi. Uning fikricha, kishilik tarixida o`yinlar san’at kabi mehnat paydo bo`lgandan so`ng va uning asosida vujudga kelgan. U,- «O‘yinda kattalarning mehnat faoliyati o‘z aksini topadi, o`yin mehnat farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo`lgan hodisadir», - deb yozgan edi.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o`ynaydilar, xuddi shu o`yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo`lib hisoblanishini asoslab, o`yinni obrazli, hayotni haqqoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G.Plexanov.

P.F.Lesgaft «Bolaning dastlabki o`yini tevarak – atrofdagi voqeа - hodisalarga taqlid kiladi, o`yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi», - deb izohlagan edi.

Buyuk psixolog D.V.Elkonin o`yining kelib chiqishida yangi g’oyani ilgari suradi jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayok bolaning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishi bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o`yinchoq mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O`yinchoq qurollar paydo bo`lishi natijasida rolli o`yinlar paydo bo`ladi. D.V.Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg’otish zarurligi g’oyasini isbotlab bergen.

Maktabgacha pedagogikada o`yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo`ladi. O`yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o`zgarib turadi.

NATIJALAR

Jamiyatning ma’naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta’lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog’likdir. SHu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta’lim tizimini pedagogik talkin kilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Ma’lumki, bolalarning asosiy vakti o`yin bilan utadi. O`yin - maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bulib hisoblanadi. O`yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. O`yin uzok davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari dikkatini o`ziga karatib kelgan.

Hozirgi zamon nutq tadqiqotchilariga tizimli yondashuv xos bo‘lib, bu hodisalarni u yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘ladigan tashqi va ichki munosabatlarning ko‘pligi hodisalarini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Nutq-til tizimi munosabatlarning ko‘pligida ishtirok etadi, bunda uning so‘z ma’nosini tarjima qiluvchi hamda psixofiziologik hodisa, muloqot va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida inson ongi va hissiyotlari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan semantik axborot apparati sifatida faoliyat yuritishi ushbu munosabatlarning asosiyalaridan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqidir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala, ushbu holat shiddat bilan, sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari mактабгача yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘рганишга alohida e’tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo‘lgan bosqich muhim rol o‘ynashini tushunib etib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Bolaning til tizimini egallah borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta’minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o‘z ichiga oladi. U mazmunligi, mantiqliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o‘zlashtirganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsiyonal jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari E.I.Tixeева, E.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penevskaya va boshqalar bolalar og‘zaki nutq va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o‘stiruvchi oddiy o‘yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo‘lgan intellektual o‘yinlardan iborat bir qancha o‘yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha o‘yinlarda o‘yinchi o‘yin shartlarini tezda o‘zlashtiradi va o‘ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. O‘yin qoidalarini bajarish jarayonida o‘yinchi o‘zining maqbul qarorlarini o‘yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘yindagi musobaqa esa shaxsiy sifatning timmay yaxshilanib borishiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy axborot texnologiyasini yaxshi bilgan va undan to‘g‘ri maqsadlarda foydalana olgan o‘quvchigina kelajakda o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishi, kasbiy faoliyatida to‘g‘ri foydalana olishi va albatta komil inson sifatida shakllanishi mumkin. O‘yinlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasidan biri hisoblanadi. Asrlar davomida o‘yinlar rivojlanib, yangilanib kelmoqda. O‘yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga etishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilmis yanada kengayib boradi.

REFERENCES

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldaggi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараённида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзаликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-2256
- 4.Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогарининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
- 5.М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
- 6.М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил
- 7.Садиковна, у. м. (2013). Ali Şir Nevai Eserlerinde Bitki Adları . Dil ve Edebiyat Araştırmaları , (8) , 0-0 . Retrieved from
8. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54
9. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 10.Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.
11. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
- 12.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
12. Хасанова, Г. И. Қ. (2021). БОЛАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТАРБИЯЧИННИГ КАСБИЙ

КОМПЕТЕНТСИЯСИННИГ АХАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 1051-1056.

13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g“risida”gi qarori.

14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g“risida”gi qarori.

CONTENTS
Volume 2, Issue 11, NOVEMBER, 2021

140. Turg'unov, B. O. (2021). TALABALARNI OMMAVIY SPORT SOG'LOMLASHTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1032-1036. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1032-1036
141. Hamrayeva, E. M. (2021). BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1037-1045. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1037-1045
142. Sindarova, Z. A. (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING DARSDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING MAZ. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1046-1050. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1046-1050
143. Norqo'ziyeva, M. A. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG TARBIYACHINING NUTQIY FAOLLIYATINI O'ZIGA XOSLIGI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1051-1054. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1051-1054
144. Jaloldinov, G. U., Otabayev, N. I., & Xodjayev, S. M. (2021). MEASUREMENT OF TIRES PRESSURE AND LOAD WEIGHT ON THE. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 10551-1061. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1055-1061
145. Jaloldinov, G. U. (2021). AVTOMOBILLARGA TEXNIK VA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH USULLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1062-1067. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1062-1067
146. Toshtemirova, D. S. (2021). BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O'YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1068-1073. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1068-1073
147. Сайдуллаева, Н. И. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМГАЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВДА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРНИНГ АХАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1074-1078. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1074-1078
148. Azimov, A., & Xamroyev, J. (2021). JIZZAX SHAHRI SHAROF RASHIDOV SHOH KO'CHASIDA AVTOMOBIL SHOVQINIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA SHOVQIN MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH METODLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1079-1088. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1079-1088
149. Хамроқулова, Ш. Э., & Аллаярова, С. Н. (2021). ЭКОЛОГИК ТАРБИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК КЎНИКМАСИННИНГ АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1089-1094. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1089-1094
150. Xasanova, D. O. (2021). MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1095-1098. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1095-1098
151. Шермухамедов, А. А., Эргашев, Н. Т., Мелиев, Х. О., & Исмадиёров А. (2021). УНИВЕРСАЛ ШАССИЛИ ТРАКТОР ТИРКАМАСИ КУЗОВ ПЛАТФОРМАСИННИНГ ЛЕГИРЛАНГАН ВА ОДДИЙ УГЛЕРОДЛАНГАН ПҮЛАТ МАТЕРИАЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА КУЧЛАНГАНЛИК-ДЕФОРМАТСИЯЛАНИШ ҲОЛАТИНИ СОНЛИ ТАҲЛИЛИ. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1099-1106. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1099-1106